

Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish uchun

12/12/2022 -son shartnoma

Toshkent sh.

2022 y. "05" may

"Respublika maxsus aloqa bog'lamasi" davlat unitar korxonasi nomidan boshliq Mirnasirov Mirkomil Mirxaydarovich, Ustav asosida faoliyat ko'rsatuvchi, bundan keyin "Operator" deb ataluvchi, bir tomonidan va Shahar telefonlari Qo'shimcha (shahar) telefonlari Qo'shimcha (hukumat aloqasi) nomidan Qisqa nomerni terish asosida faoliyat ko'rsatuvchi, bundan keyin "Abonent" deb ataluvchi, ikkinchi tomonidan, mazkur Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. "Operator" O'zbekiston Respublikasi mahalliy telefon aloqa xizmatidan foydalanish qoidalariغا Shaharlararo va xalqaro telefon aloqa xizmatlaridan foydalanish qoidalari va ushbu shartnomaga muvofiq "Abonent"ga telefon aloqa xizmatlarining zarur turlarini taqdim etish, "Abonent" esa bu xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatlarini o'z zimmalariga oladilar.

2. Xizmatlar turlari

2.1. "Operator" "Abonent"ga asosiy va qo'shimcha (*) xizmatlarni taqdim etadi:
shu jumladan QQS 15%

Xizmatlar turlarining nomi	Miqdori	Bir oy uchun tarif, so'm
Shahar telefonlari		
Qo'shimcha (shahar) telefonlari		
Qo'shimcha (hukumat aloqasi)		
Qisqa nomerni terish		
Hukumat aloqasi telefonlari (HATS)	4	16490
Ichki telefonlar		
Abonent arizasi bo'yicha aniqlash		
500 m gacha uzunlikdagi to'g'ri simlar		
500 m ortiq uzunlikdagi to'g'ri simlar	4	6440.
Faksimil apparatidan foydalanish		
Kirish qo'ng'iroqlarini qayta manzillash		
EATS uchun vaqtbay to'lov		
Yangi qo'ng'iroq kelib tushganligi to'g'risida xabar qilish		
MOQdan foydalanish		
JAMI:		

(*)Qo'shimcha xizmatlar "Operator" tomonidan Abonentning arizalari bo'yicha taqdim etiladi va u tomonidan asosiy xizmatlarga haq to'lash bilan birga taqdim etilgan hisobga ko'ra to'lanadi.

2.2. Xizmatlarning turlari va hajmi "Operator"ning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib o'zgarishi mumkin.

3. Tomonlar majburiyatları

3.1. "Operator":

3.1.1. "Abonent"ning arizasiga ko'ra shahar, hukumat, idoraviy telefon apparatlari va boshqa oxirgi qurilmalarni o'rnatish, joyini o'zgartirish ishlarini amalga oshirish.

3.1.2. Shaharlararo va xalqaro aloqadan foydalanishni ta'minlash.

3.1.3. Amaldagi normativ hujjatlar talablariga javob beradigan kechayu kunduz barqaror va sifatli telefon aloqasini ta'minlash.

3.1.4. O'tgan (hisob-kitob) davri uchun mahalliy, shaharlararo va xalqaro aloqa xizmatlariga haq to'lash uchun (xizmatlar narxini vaqtbay hisobga olganda) "Abonent"ga hisoblarni taqdim etish majburiyatlariga ega.

3.2. "Operator" quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. "Operator" "Abonent" tomonidan ruxsatsiz uning abonent liniyalariga ulangan oxirgi qurilmalar (telefon apparatlari, telematik xizmatlar, ma'lumotlar uzatish qurilmalari, radiotelefonlar, radiouzaytirgichlar va h.)ni dalolatnomani rasmiylashtirgan holda uzishni talab qilish.

3.2.2. "Operator" "Abonent" tomonidan Mahalliy telefon aloqa xizmatlaridan foydalanish qoidalari buzilgan holda ushbu Shartnomaning amal qilishini to'xtatish.

3.3. "Abonent":

3.3.1. Telekommunikatsiya xizmatlariga o'z vaqtida haq to'lash.

3.3.2. Qo'shimcha rozetkalar, ma'lumotlar uzatish uskunalarini, faks apparatlarini ruxsatsiz o'rnatish, joyini o'zgartirish, parallel apparatlarni ulash, shuningdek abonent nomerlarini ta'sis qilingan stansiyaga ulashga yo'l qo'ymaslik. Ularni faqat "Operator"ning ruxsati bilan tegishlicha rasmiylashtirilgandan va ro'yxatga olingandan keyin ulash.

3.3.3. "Operator"ga telefondan foydalanishda yuz bergan o'zgarishlar (abonentning ko'chib ketganligi, korxona va rekvizitlarining o'zgarganligi va sh.k.) to'g'risida o'z vaqtida xabar qilish.

3.3.4. Yarim yilda kamida bir marta hisob-kitoblarni qiyoslash dalolatnomasini bajarish majburiyatlariga ega.

4. Xizmatlar uchun haq to'lash

4.1. Taqdim etiladigan telekommunikatsiya xizmatlarining umumiylarini narxi tasdiqlangan 125-1/1-son; 125-1/7-son, 125-1/3-son Preyskurantlariga muvofiq har bir xizmat turi uchun tarifdan kelib chiqib belgilanadi.

4.2. Shartnoma tuzish vaqtida shartnomaning umumiylarini summasi 276 360 (уе ки соғ етсанес оңга өнеки язға оғаралаш) so'mni tashkil qiladi. Oxirgi qurilmadan foydalanish va telekommunikatsiya xizmatlari uchun haq to'lash shartnoma summasining 30 foizi miqdoridagi oldindan to'lovni to'lab naqd bo'lmagan hisob-kitob orqali amalga oshiriladi. Keyingi to'lov joriy oyning taqdim etilgan hisob-kitoblar, to'lov topshiriqlari va boshqa hisob-kitob hujjatlari asosida 20-sanasigacha amalga oshiriladi.

4.3. Joriy oyning 30-sanasigacha (30-sana ham kiradi) to'lov kelib tushmaganda, "Bajaruvchi"ning telefon uzib qo'yilishi va "Abonent" yopiq bo'lishi to'g'risida ogohlantiradi. "Abonent"ni ochish 5.2-bandga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Tariflar o'zgargan holda yangi tariflar kuchga kirishidan avval "Abonent" tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan bo'lganda ham "Bajaruvchi" taqdim etilayotgan xizmatlar narxini qayta hisob-kitob qiladi.

4.5. "Abonent" aybi bilan telefon ishlamagan vaqt uchun telefondan foydalanganlik to'lovi to'liq miqdorda undiriladi.

4.6. "Abonent" liniya-kabel xo'jaligi va "Abonent"ning telefon apparati ishdan chiqqan hollardan tashqari, texnik to'xtab qolishlar sababli aloqa bilan ta'minlanmagan kunlar uchun haq to'lamaydi.

4.7. Telefon va boshqa oxirgi qurilmalarni o'rnatish, shuningdek to'g'ri simlar va ulovchi liniyalarning taqdim etilganligi uchun to'lov bu xizmatlarga buyurtma rasmiylashtirilganidan keyin "Abonent" tomonidan to'lanadi.

4.8. Shaharlارaro va xalqaro so'zlashuvlarning rasshifrovkasi "Abonent"ga qo'shimcha to'lov uchun ishonchnoma mavjud bo'lganda taqdim etiladi.

4.9. Agar Abonent to'lanishi kerak bo'lgan summa, so'zlashuvning davomiyligi yoki tegishliligi bilan rozi bo'lmaganda, u hisobni olganda keyin 45 kun ichida norozi bo'lib shikoyat arizasini berish huquqiga ega. 45 kun o'tgandan keyin da'volar qabul qilinmaydi.

5. Tomonlar javobgarligi

5.1. "Operator" va "Abonent" Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarida telefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.2. Abonentni ochish u o'chirilgandan keyin 30 kun ichida bajarilishi mumkin (telefon ishlashini tiklash imkoniyati saqlanadi) qarzdorlikni to'lash va har bir kechiktirilgan kun uchun kechikkan to'lov summasining 40 foizi miqdoridagi, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan penyani to'lash sharti bilan. Telefon o'chirilgandan keyin to'lov kelib tushmagan holda "Operator" telefon nomerini olib qo'yish huquqiga ega. "Abonent" tomonidan ro'yxatga olish to'lovi to'lagandan keyin yangi telefon nomerini o'rnatish mumkin bo'ldi.

5.3. Telefondan foydalanish huquqini "Operator"ning tegishli ruxsatsiz boshqa shaxsga yoki tashkilotga berish, shuningdek haq to'lash evaziga telefondan foydalanishni uchinchi shaxslarga berish orqali telefonni ekspluatatsiya qilish taqiqlanadi.

5.4. Tomonlarning mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan javobgarlik choralar O'zR hududida amal qiladigan qonun hujjatlari normalariga muvofiq qo'llaniladi.

6. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkonni boricha tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li orqali hal qilinadi.

6.2. Nizolarni tomonlarning muzokaralari yo'li orqali hal qilish imkonni bo'lmagan holda nizolarni qonun hujjatlarda ko'zda utilgan sudgacha tartibga solish protsedurasi amalga oshirilgandan keyin ular ko'rib chiqish uchun Toshkent shahridagi Tumanlararo iqtisodiy sudga yuboriladi.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH QOIDALARI

7.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish doirasida Tomonlar amaldagi qonunchilik shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar.

Bunda ular va ularning hodimlari, filiallari, benefitsiarlari va ushbu Shartnomanibajarishda ishtiroy etadigan agentlar biznes sheriklari, vositachilar, pudratchilar pora berish yoki olish, tijorat pora olish sifatidagi harakatlarni (harakatsizligi) amalga oshirmsaliklarini ta'minlash, pora berishda vositachilik, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi hodimining yoki boshqa shaxslarning pora olishi va ushbu Shartnoma va korrupsiyaga qarshi kurashish va jinoyatchilikdan olingen daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi qo'llaniladigan qonun hujjatlarida nazarda utilgan boshqa huquqburzaliklarga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi.

7.2. Tomonlar bevosita yoki bilvosita, shahsan yoki uchinchi shahslar orqali takliflar, va'dalar, berish, tovlamachilik, so'rovlari, pul va boshqa qimmatbaho buyumlar, mulk, mulk huquqi va boshka moddiy yoki moddiy bo'lmagan foydalarni olish va olishga rozilik berish hamda asossiz ustunlikka erishish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish, shu jumladan Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va oshkorali tamoyillariga mos kelmaydigan

maqsadlarga erishish xamda xar qanday shahslardan ularga ta'sir o'tkazishdan bosh tortadilar. Tomonlar qayd etilgan harakatlarning oldini olish choralarini ko'rishni kafolatlaydilar.

7.3. Mazkur Shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini bajarish doirasida, ushbu Shartnomanı Tomonlar qonun buzilishida gumanlarning paydo bo'lishi yoki Tomonlar, ularning xodimlari, affilangan shahslari, benefitsiarlari va ular tomonidan jalg qilingan shaxslar tomonidan buzilish ehtimoli borligi to'g'risida bir-birlarini yozma ravishda (shu jumladan korporativ elektron pochtadan foydalangan holda) ochiq va darhol xabardor kilishni o'z zimmalariga olishadi.

Shunindek, agar Tomonlardan biri amaldagi qonun yoki ushbu Shartnomaning har qanday korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini boshqa Tomon, uning xodimlari, affilangan shahslari, benefitsiarlari yoki ular tomonidan jalg qilingan shaxslar tomonidan buzilganligi to'g'risida asosli shubha tug'dirs, Ushbu Shartnomanı amalga oshirish doirasida ushbu Tomon unga so'rov olingen kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida sharhlar va buzilish faktini rad qiluvchi yoki tasdiqlovchi ma'lumotlar, hujjatlar taqdim etish talabi bilan yozma ravishda so'rov yuborishga haqlidir.

7.4. Mazkur bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha ushbu Shartnomanı bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan Tomon keyingi tomonidan yetkazilgan zararni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, shu bilan birga ushbu bobning majburiyatlarini buzgan Tomon ushbu Shartnomanı bir tomonlama bekor qilish tufayli zararni qoplashni talab qilishga xaqli emas.

8. Alovida shartlar

8.1. "Operator" arizaga ko'ra hukumat ATS (HATS)ning "Abonent"ini amaldagi narxlar bo'yicha telefon aloqa ma'lumotnomalari bilan ta'minlaydi.

9. Fors-major

9.1. Tomonlar mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun, agar bunday holat bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar (harbiy harakatlар, tabiiy ofatlar, qonun hujjatlarining o'zgartirilishi va b.) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

9.2. Fors-major holatlariga asoslanadigan Tomon ularni tasdiqlash uchun vakolatlangan davlat organi tomonidan berilgan hujjatni taqdim etishi kerak.

10. Konfidensiallik

10.1. Tomonlar mazkur Shartnomanı bajarish davomida olingen, Tomonlarning har biri uchun konfidensial bo'lib hisoblangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatlarini o'z zimmalariga oladilar. Konfidensial axborot deganda mazkur Shartnoma oshkor qilinishi istalgan Tomon uchun zarar keltirishi va/yoki ishchanlik obro'siga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, umum foydalanadigan deb hisoblanmaydigan ma'lumotlar tushuniladi.

10.2. Tomonlar 9.1-bandda ko'rsatilgan axborotni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar, o'z affilangan shaxslari, shuningdek mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarining bajarilishi bilan bog'liq holda Tomonlarning har biri nomidan axborotni olish va uzatishga vakolatlangan Tomonlarning mas'ul shaxslari bundan mustasno.

10.3. 9.1-bandda ko'rsatilgan axborot faqat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda oshkor qilinishi mumkin.

10.4. Mazkur Shartnoma bekor qilingan holda Tomonlar mazkur Shartnomaning amal qilish muddati to'xtatilgan paytdan boshlab 1 (bir) yil davomida 9.1-bandda ko'rsatilgan axborotni oshkor qilmaslik hamda undan o'z manfaatlarida va/yoki uchinchi shaxslarning manfaatlarida foydalanmaslik majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

11. Shartnomaning amal qilish muddati

11.1. Mazkur shartnoma 2022 y. "or" "moy" dan 2023 y. "moy" "genap" gacha amal qiladi. Agar "Abonent" xizmatlar uchun to'lovnii byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirsa, mazkur shartnoma O'zR Moliya vazirligining G'aznachiligidagi ro'yxatga olinishi kerak.

11.2. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki ikkinchi tomon tarafidan ushbu shartnomaning 5.4-bandida ko'rsatilgan shartnoma shartlari buzilgan holda, 10 kun oldin ikkinchi tomonni yozma ravishda xabardor qilib, bekor qilinishi mumkin.

11.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikki nusxa ham aynan o'xshash va bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur shartnomaning bitta nusxasi mavjud.

11.4. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda tuzilgan bo'lsa va tomonlarning bunga vakil qilingan vakillari tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaga ilovalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.

12. Yuridik manzillar

"Operator"

Manzil: Toshkent sh., akad. Ya.G'ulomov ko'ch., 2-uy.
h/r 2021000100155276001- MTR bo'yicha
h/r 2021000200155276007- abon.to'lovi bo'yicha
"Aloqabank" ATB
MFO 00401
STIR 201440547
IFUT 53200
tel: 2398549 (faks); 2398447 (abon.bo'l.).
Boshlig' M.O'

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OYI
KENGASHI HUZO'RIDAGI SUDYALAR OLYI MAJLABI
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Ch. ponota. 6-uy
Manzil: H/r: 2340 2000 3001 0000 1010
O'ZR MB HKKM BB TOSHKENT SH. BANK KOU
SH: 1000 000 026 294 209 620 0128901
STIR: 305 883 248 OKEID Tel: 71-273-86-07

MFO _____
STIR _____



M.O'

Mirnasirov M.M.



Mirnasirov M.M.

Информация о юридическом лице (По данным регистрирующих и уполномоченных органов)

Общие сведения

ИНН:	201440547
Регистрирующий орган:	Кабинет Министров Республики Узбекистан
Дата регистрации :	31.07.1997
Номер регистрации:	380
Наименование юридического лица:	"RESPUBLIKA MAXSUS ALOQA BOG'LAMASI" davlat unitar korxonasi
Код ОПФ:	160 - Унитарное предприятие
Код ОКЭД (Вид(ы) осуществляемой деятельности):	53200 - Прочая почтовая и курьерская деятельность
Код СООГУ:	03593 - Министерство по развитию информационных технологий и коммуникаций Республики Узбекистан
Принадлежность к субъектам малого предпринимательства:	Нет
Состояние активности:	Действующие предприятия
Уставный фонд:	289 101 700,000 UZS

Информация об учредителях и их доле в уставном фонде

1. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	100,00 %
--	----------

Контактные данные

Адрес электронной почты:	
Контактные телефоны:	712336454, 712391604
Код СОАТО:	1726269 - Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani
Улица, тупик, дом:	Ak.Ya.G'ulomov ko'chasi, 2-uy

Информация о руководителе

Имя руководителя:	MIRKOMIL MIRNASIROV MIRXAYDAROVICH
ИНН руководителя:	452237591